

ZILZILA VA UNING IKKILAMCHI OQIBATLARIDAN AHOLI VA HUDUDLARNI MUHOFAZA QILISHNI TAKOMILLASHTIRISH

Qobilov Baxtiyor Abdumannonovich

Jizzax viloyati Favqulodda vaziyatlar boshqarmasi

Hayot faoliyati xavfsizligi markazi o'qituvchisi.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10971920>

Annotatsiya. Mazkur maqolada zilzila va uning ikkilamchi oqibatlaridan aholi va hududlarni muhofaza qilishni takomillashtirish haqida fikr-mulohazalar bildirildi.

Kalit so'zlar: tabiiy, zilzila, yer, nisbiy, seysmik, silkinish, xavfsizlik.

IMPROVING THE PROTECTION OF POPULATIONS AND TERRITORIES AGAINST EARTHQUAKE AND ITS SECONDARY CONSEQUENCES

Abstract. This article provides feedback on improving the protection of the population and territories from the earthquake and its secondary consequences.

Key words: natural, earthquake, earth, relative, seismic, shaking, safety.

УЛУЧШЕНИЕ ЗАЩИТЫ НАСЕЛЕНИЯ И ТЕРРИТОРИЙ ОТ ЗЕМЛЕТРЯСЕНИЯ И ЕГО ВТОРИЧНЫХ ПОСЛЕДСТВИЙ

Аннотация. В данной статье приводятся отзывы по вопросам улучшения защиты населения и территорий от землетрясения и его вторичных последствий.

Ключевые слова: природное, землетрясение, земля, относительное, сейсмическое, сотрясение, безопасность.

Tabiiy ofatlar insoniyat boshiga og'ir kulfatlar soluvchi, ekologik muhitga, xalq xo'jaligiga beqiyos zarar yetkazuvchi hodisalar hisoblanib, har yili mamlakatimizning turli hududlarida turli shakllarda sodir bo'lib turadi. Masalan: Farg'ona vodiysi viloyatlarida sel kelishi, Xorazm va Toshkent viloyatlari hududlarida suv toshqini, Surxondaryo va Qashqadaryo viloyatlarida esa chang-to'zonli shamollar, afg'on shamollari tahlikali vaziyatlarni vujudga kelishiga sabab bo'layotgani sir emas. Tabiiy hodisalar ichida eng dahshatlisi, tabiatga, jamiyatga va ekologik holatga ko'p zarar yetkazuvchi, katta hududlarda yuz berayotgan zilzilalardir.

Insoniyat o'zining butun tarixiy taraqqiyoti mobaynida ko'p marta yer qimirlashlarni boshidan kechirgan, uning oqibatlarining guvohi bo'lgan. Uzoq tarixiy saboq, ya'ni yer silkinishini kishilarning ruhiy holatiga bo'lgan ta'siri, imorat va inshootlarning buzilishi, vayron qilinishi, yer yuzasida vujudga kelgan o'zgarishlar yer sathida yoriqlarning va buloqlarning paydo bo'lishi yuz bergan hodisaning kuchini baholashga o'rnatgan. Natijada nisbiy baholash seysmik shkalasi paydo bo'lgan. Quyida shu nisbiy seysmik shkalani ba'zi o'zgarishlar bilan bayon etamiz. Respublikamizda va juda ko'p davlatlarda zilzila kuchi 12 balli shkala asosida baholanib, har bir ballga ega bo'lgan zilzila o'z tafsilotiga ega. Bundan tashqari baholashda 8 balli Rixter seysmik shkalasidan ham foydalaniladi.

Bizda asosan 2 turdagi yer qimirlashi kuzatilgan:

-uzoq davrli 1,5-2,5 daqiqa davom etadigan;

-yuqori chastotali tebranishli 1,5-2,5 soniya davom etadigan.

Uzoq davrli yer qimirlashda tebranish sekin – asta kuch yig'adi va u ko'p qavatli binolar uchun xavfli hisoblanadi. Yuqori chastotali yer qimirlashi energiyasi qisqa davr ichida ajralishi

tufayli, oqibatlar ayanchli bo'lishi mumkin, sababi agar sust harakat qilinsa ko'p qurbonlikka olib kelishi mumkin. Yer qimirlashning asosiy ko'rsatkichlari – qimirlash markazining chuqurligi va tebranishni qancha muddat davomida takrorlanishidadir. Yuqorida aytilganidek yer yuzasidagi uning ta'sir kuchi odatda ballarda baholaniladi.

Quyida shu nisbiy seysmik shkalani ba'zi o'zgarishlar bilan bayon etamiz:

1 ball Sezilarsiz –Faqatgina seysmik asboblardagina qayd qilinadi.

2 ball Juda kuchsiz Uy ichida o'tirgan ba'zi odamlar sezishi mumkin (deraza oynalari titraydi).

3 ball Kuchsiz, ko'pchilik odamlar sezmaydi, ochiq havoda tinch turgan odam sezishi mumkin. Osilgan jismlar asta- sekin tebranadi.

4 ball O'rtacha sezilarli. Ochiq havoda turgan odamlar va bino ichidagi kishilar sezadi.

Uy devorlari qirsillaydi. Ro'zg'or anjomlari titraydi, osilgan jismlar tebranadi.

5 ball Ancha kuchli. Hamma sezadi, uyqudagi odam yug'onadi.

Ba'zi odamlar hovliga yugurib chiqadi. Idishdagi suyuqlik chayqalib to'kiladi, osilgan uy jihozlari qattiq tebranadi.

6 ball Kuchli, Hamma sezadi, uyqudagi odam uyg'onadi. Ko'pchilik odamlar hovliga yugurib chiqadi, uy hayvonlari betoqat bo'ladi. Ba'zi hollarda kitob javonidan kitoblar, javonlardagi idishlar ag'darilib tushadi.

7 ball Juda kuchli. Ko'pchilik odamlarni qo'rquv bosadi, ko'chaga yugurib chiqadi, avtomobil haydovchilari tomonidan harakat vaqtida ham seziladi, uy devorlarida katta-katta yoriqlar paydo bo'ladi, havzalardagi suvlar chayqaladi va loyqalanadi.

8 ball Yemiruvchi. pishmagan g'ishtdan qurilgan imoratlarda butunlay vayron bo'ladi, ancha pishiq qilib qurilgan imoratlarda ham yoriqlar paydo bo'ladi, uy tepasidagi mo'rilar yiqiladi, ba'zi daraxtlar butun tanasi bilan yiqilib tushadi, sinadi, tog'lik joylarda qulash, surilish hodisalari yuz beradi.

9 ball Vayron qiluvchi. Yer qimirlashga bardosh beradigan qilib qurilgan imorat va inshootlar ham qattiq shikastlanadi, poydevorlardan siljib, qiyshayib qolishi mumkin, oddiy imoratlar butunlay vayron bo'ladi, yer yuzasida yoriqlar paydo bo'ladi, yer osti suvlari sizib chiqishi mumkin.

10 ball Yakson qiluvchi. Hamma imoratlar katta shikast ko'radi. Temir yo'l relslari to'liqinsimon shaklga kirib, bir tomonga qarab egilib qoladi.

Aholini favqulodda vaziyat sharoitida himoyalash, shu hodisaning noxush oqibatiga yo'l qo'ymaslik yoki uni maksimal darajada pasaytirish bo'yicha qo'llaniladigan choralar majmuaviy tadbirlardir. Aholini himoyalashning samaraldorligiga mavjud barcha vosita va usullar to'la ishla tilganda va xavfsizlikni ta'minlash tamoyillari to'laligicha anglab yetilgan taqdirdagina erishish mumkin.

Xavfsizlikni ta'minlash tamoyillari qo'llanishiga ko'ra uch guruhga bo'linadi:

1. Oldindan tayyorgarlik ko'rmoq (shaxsiy va jamoaviy), himoya vositalarini to'plash, ularni tayyor holda saqlash hamda aholini xavfli hududdan evakuatsiya qilish bo'yicha tadbirlarni tayyorlash ya amalga oshirish.

2. Differensiyallashgan yo'nalish tadbirlari hajmi xarakteri xavfli va zaharli omillar manbaining turi mahalliy sharoitlarga bog'liq.

3. Tadbirlar majmuasi oqibatlaridan himoyalaniş usullari va vositalaridan samarali foydalanish, zamonaviy texno-ijtimoiy muhitda hayotiy faoliyat xavfsizligini ta'minlash bo'yicha tadbirlar bilan birga olib borishni taqozo etadi.

Ko'rilayotgan muammoni ushbu sharoitda hal qilishda Favqulotda Vaziyatlarda odamlarning xavfsizligini ta'minlash bo'yicha xavfning oldini olish va paydo bo'lish ehtimolini kamaytirish, hamda uning oqibatlari hajmini kamaytirish masalalarini qamrab oladigan keng qamrovli yondoshuy kerak.

Ushbu metodologik asosda o'zimizning ya xorijiy amaliyot tajribasini hisobga olgan holda, samaradorlikni tobora ortib borishini asoslaydigan tadbirlar majmuasini oldindan tayyorlash, boshqacha qilib aytganda, zamonaviy texno-ijtimoiy muhitda odamlarning xavfsizligini ta'minlashning ko'p tabaqali tizimini joriy qilish kerak.

REFERENCES

1. G'.Yormatov, O.R.Yo'ldashev, A.L.Hamrayeva "Hayot faoliyat xavfsizligi"
2. I.Nigmatov, M.Tojiyev "Favqulodda vaziyatlarda fuqaro muhofazasi" Toshkent 2011
3. A.Qudratov, T.G'aniyev, O'.Yo'ldashev, G'.Y.Yormatov, N.Habibullayev, A.D.Hudayev "Hayotiy faoliyat xavfsizligi" Toshkent 2005
4. O.Qudratov, T.G'aniyev "Hayotiy faoliyat xavfsizligi" Toshkent 2004